UO‘K: 378.147:004.9:811.134.2

ISPAN TILI TA’LIMIDA TALABALARNING MADANIYATLARARO KOGNITIV DUNYOQARASHINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA SHAKLLANTIRISH MODELI VA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Xalillayev Adilbek Kurambayevich
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ispan tili nazariy fanlar kafedrasi dotsenti v.b., filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. *Maqolada ispan tilini o‘rganayotgan talabalarning madaniyatlararo kognitiv dunyoqarashini raqamli ta’lim muhitida shakllantirishning pedagogik modeli taqdim etilgan. Model maqsadli, mazmuniy, jarayonli, texnologik va natijaviy bloklardan iborat bo‘lib, uning markazida izlash, tahlil, qiyoslash, talqin va refleksiv baholash bosqichlaridan tashkil topgan kognitiv faoliyat sikli turadi. Virtual almashinuv, til korpuslari, raqamli hikoyalash va sun’iy intellekt vositalarining didaktik funksiyalari aniqlangan, modelning pedagogik shart-sharoitlari va diagnostik mezonlari asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *pedagogik model, raqamli ta’lim muhiti, ispan tili, virtual almashinuv, telekollaboratsiya, sun’iy intellekt, madaniyatlararo kognitiv dunyoqarash, pedagogik shart-sharoitlar, diagnostika.*

МОДЕЛЬ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ МЕЖКУЛЬТУРНОГО КОГНИТИВНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ СТУДЕНТОВ СРЕДСТВАМИ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ ИСПАНСКОМУ ЯЗЫКУ

Халиллаев Адилбек Курамбаевич

Аннотация. *В статье представлена педагогическая модель формирования межкультурного когнитивного мировоззрения студентов, изучающих испанский язык, в цифровой образовательной среде. Модель включает целевой, содержательный, процессуальный, технологический и результативный блоки; ее ядро – цикл познавательной деятельности из этапов поиска, анализа, сравнения, интерпретации и рефлексивной оценки. Определены дидактические функции виртуального обмена, языковых корпусов, цифрового сторителлинга и средств искусственного интеллекта, обоснованы педагогические условия и диагностические критерии модели.*

Ключевые слова: *педагогическая модель, цифровая образовательная среда, испанский язык, виртуальный обмен, телеколлаборация, искусственный интеллект, межкультурное когнитивное мировоззрение, педагогические условия, диагностика.*

A MODEL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR DEVELOPING STUDENTS’ INTERCULTURAL COGNITIVE WORLDVIEW THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES IN SPANISH LANGUAGE EDUCATION

Khalillayev Adilbek Kurambayevich

Abstract. *The article presents a pedagogical model for developing the intercultural cognitive worldview of university students of Spanish in a digital learning environment. The model comprises target, content, process, technological and outcome blocks; its core is a cognitive activity cycle of search, analysis, comparison, interpretation and reflective evaluation. The didactic functions of virtual exchange, language corpora, digital storytelling and artificial intelligence tools are identified, and the model’s pedagogical conditions and diagnostic criteria are substantiated.*

Keywords: *pedagogical model, digital learning environment, Spanish language, virtual exchange, telecollaboration, artificial intelligence, intercultural cognitive worldview, pedagogical conditions, diagnostics.*

Kirish

Raqamli ta’lim muhiti xorijiy til o‘rganuvchiga autentik madaniy materiallar, ona tilida so‘zlashuvchilar bilan jonli muloqot va xalqaro hamkorlikdagi loyihalar uchun keng imkoniyatlar ochmoqda. O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishga[1] va “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirishga[2] qaratilgan hujjatlarda xorijiy til ta’limi sifatini oshirish va ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish vazifalari belgilangan. Biroq xorijiy tadqiqotlar raqamli muhitning o‘zi madaniyatlararo kompetensiyani avtomatik ravishda shakllantirmasligini, uning samarasi maqsadli loyihalangan topshiriqlar, refleksiya va o‘qituvchi ko‘magiga bog‘liqligini ko‘rsatmoqda.

Madaniyatlararo kognitiv dunyoqarash deganda talabaning ona tili va o‘rganilayotgan til orqali ifodalangan dunyo manzaralarini qiyoslash asosida shakllanadigan, madaniy hodisalarni idrok etish, talqin qilish va baholashning barqaror tizimi tushuniladi. Maqolaning maqsadi – ispan tili ta’limida uni raqamli texnologiyalar vositasida shakllantirish modelini ishlab chiqish, uning pedagogik shart-sharoitlari va diagnostik vositalarini asoslashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

R.O’Dowd virtual almashinuvning asosiy modellari va uni oliy ta’limga keng joriy etish muammolarini tahlil qilgan[3]. R.Godwin-Jones telekollaboratsiya madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning samarali yondashuvi bo‘la olishini, biroq buning uchun ishtirokchilar muloqotini tanqidiy refleksiya va o‘qituvchi ko‘magi bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatgan[4].

Ispan tili ta’limida olib borilgan tadqiqotlar ham shunga o‘xshash xulosalarga olib kelgan. G.Villegas-Paredes, S.Canto Gutiérrez va I.Rodríguez Moranta Utrecht universitetining ispan tilini o‘rganuvchi talabalari hamda Universidad Internacional de La Rioja (UNIR) magistraturasidagi bo‘lajak ispan tili o‘qituvchilari o‘rtasida beshta hamkorlikdagi topshiriq asosida tashkil etilgan telekollaborativ loyihaning madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi imkoniyatlarini o‘rgangan[5]. M.Giralt va hammualliflari ispan tili ta’limidagi virtual almashinuvni madaniyatlararo va raqamli kompetensiyalarni birgalikda rivojlantirish vositasi sifatida ko‘rib chiqqan[6]. A.Sevilla Pavón va J.Haba Osca maqolasining sarlavhasiga chiqarilgan ishtirokchi e’tirofi – dunyo bir vaqtning o‘zida “shunchalik turli va

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. – URL: https://lex.uz/docs/5426736

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “«Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. – URL: https://lex.uz/docs/5030957

[3] O’Dowd R. From telecollaboration to virtual exchange: state-of-the-art and the role of UNICollaboration in moving forward // Journal of Virtual Exchange. – 2018. – Vol. 1. – P. 1-23.

[4] Godwin-Jones R. Telecollaboration as an approach to developing intercultural communication competence // Language Learning & Technology. – 2019. – Vol. 23, No. 3. – P. 8-28.

[5] Villegas-Paredes G., Canto Gutiérrez S., Rodríguez Moranta I. Telecolaboración y competencia comunicativa intercultural en la enseñanza-aprendizaje de ELE: un proyecto en educación superior // Porta Linguarum. – 2022. – Monográfico IV. – P. 97-118.

[6] Giralt M., Villegas-Paredes G., Beaumont Aparicio G. Developing intercultural and digital competence through virtual exchanges in Spanish language learning and teaching // Journal of Spanish Language Teaching. – 2026. – Vol. 13, No. 1. – P. 80-99.

o‘xshash” bo‘lishi mumkinligini anglash – telekollaboratsiyaning aynan dunyoqarash darajasidagi ta’sirini yaqqol ifodalaydi[7]. E’tiborli jihati, bu tadqiqotlarning barchasida virtual almashinuv oldindan loyihalangan topshiriqlar va pedagogik rahbarlik asosida tashkil etilgan.

YuNESKO generativ sun’iy intellektdan (SI) ta’limda inson markazlashgan, axloqiy va tanqidiy yondashuv asosida foydalanishni tavsiya etadi[8]. E.Kasneci va hammualliflari katta til modellari individual qayta aloqa va muloqot mashqlari uchun imkoniyat yaratishi bilan birga, noaniq ma’lumot va tarafkashlik xavfini ham tug‘dirishini qayd etgan[9]. Biroq ko‘rib chiqilgan ishlarda raqamli vositalar ko‘pincha alohida-alohida o‘rganilgan; ularni madaniyatlararo bilish faoliyati bosqichlari va dunyoqarash komponentlari bilan tizimli bog‘lovchi yaxlit model, xususan, o‘zbek talabalari uchun ispan va o‘zbek madaniyatlarini qiyoslash kontekstida ishlab chiqilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda pedagogik modellashtirish, tizimli-tuzilmaviy tahlil, pedagogik loyihalash va ilg‘or xorijiy tajribani qiyosiy tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Modelning texnologik blokini loyihalashda muallifning ispan tili mashg‘ulotlarida raqamli texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha avvalgi kuzatishlari[10] umumlashtirildi.

Natijalar va muhokama

Ishlab chiqilgan model besh o‘zaro bog‘liq blokdan iborat:

– **maqsadli blok** – ijtimoiy buyurtma va Servantes instituti “Plan curricular”i[11] talablari asosida madaniyatlararo kognitiv dunyoqarashni shakllantirish maqsadi va vazifalarini, metodologik asos sifatida madaniyatlararo, kompetensiyaviy, kognitiv, aksiologik va raqamli-pedagogik yondashuvlarni belgilaydi;

– **mazmuniy blok** – “Ispan tilida so‘zlashuvchi dunyo: tarix va zamonaviylik”, “Madaniy konseptlar va qadriyatlar” (familia, amistad, honor, fiesta, tiempo), “Kommunikativ xulq-atvor me’yorlari” (murojaat shakllari, xushmuomalalik strategiyalari, noverbal muloqot) hamda “Madaniyatlararo mediatsiya va onlayn muloqot” modullarini qamrab oladi;

– **jarayonli blok** – besh bosqichli madaniyatlararo kognitiv faoliyat siklini amalga oshiradi (1-jadval);

– **texnologik blok** – raqamli vositalar, shakl va metodlar majmuini, jumladan, virtual almashinuv, keys-stadi, loyiha metodi va madaniy tushunmovchilik

[7] Sevilla Pavón A., Haba Osca J. «Te das cuenta de que el mundo puede ser tan distinto y similar al mismo tiempo»: telecolaboración y desarrollo de la competencia intercultural en la educación superior // Didáctica. Lengua y Literatura. – 2016. – Vol. 28. – P. 263-284.

[8] UNESCO. Guidance for generative AI in education and research. – Paris: UNESCO, 2023.

[9] Kasneci E., Sessler K., Küchemann S. et al. ChatGPT for good? On opportunities and challenges of large language models for education // Learning and Individual Differences. – 2023. – Vol. 103. – Art. 102274.

[10] Xalillayev A.K. Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarning samarali qo‘llanilishi: metodik yondashuvlar // Ispan tilining O‘zbekistonda rivojlanishi: tarixiy kontekst, yangi imkoniyatlar va zamonaviy tendensiyalar: xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2025. – B. 298-301.

[11] Instituto Cervantes. Plan curricular del Instituto Cervantes. Niveles de referencia para el español. – Madrid: Biblioteca Nueva, 2006.

vaziyatlarini tahlil qilishga asoslangan “madaniy assimilyator” metodini[12] o‘z ichiga oladi;

– **natijaviy blok** – mezon, ko‘rsatkich va darajalar hamda diagnostika vositalarini belgilaydi (2-jadval).

1-jadval

Raqamli ta’lim muhitida madaniyatlararo kognitiv faoliyat sikli (“familia” – “oila” konseptlari misolida)

Bosqich va kognitiv amal	Raqamli vositalar	Topshiriq namunasi
1. **Izlash**: axborotni topish, saralash va baholash	Centro Virtual Cervantes, RTVE Play, Google Arts & Culture	“La familia en España y en América Latina” mavzusida uchta autentik manba topish va ishonchliligini baholash
2. **Tahlil**: konseptning lisoniy va madaniy belgilarini aniqlash	CORPES XXI korpusi, DLE lug‘ati	“familia” so‘zining korpusdagi birikmalarini (*familia numerosa*, *familia política* va b.) tahlil qilish
3. **Qiyoslash**: o‘xshashlik va farqlarni aniqlash	Raqamli aqliy xarita, Venn diagrammasi	“familia” va “oila” konseptlarining qadriyatli belgilarini (katta oila, mehr-oqibat, *compadrazgo* va mahalla) qiyoslash
4. **Talqin**: o‘zga nuqtai nazarni tushunish, vositachilik	Videokonferensiya, eTandem, SI suhbat-simulyatsiyasi	Ispan tilida so‘zlashuvchi tengdosh bilan oilaviy an’analar haqida suhbat, tushunmovchiliklarni izohlash
5. **Refleksiv baholash**: o‘z stereotiplari va pozitsiyasini baholash	E-portfolio, refleksiv kundalik, raqamli hikoya	“Ispan oilasi haqidagi qaysi tasavvurim o‘zgardi?” mavzusida 2-3 daqiqalik raqamli hikoya

Siklda har bir raqamli vosita muayyan kognitiv amalga xizmat qiladi: CORPES XXI korpusi[13] konseptning zamonaviy ispan tilidagi real qo‘llanishini ko‘rsatsa, virtual almashinuv madaniy farqlarni jonli muloqotda “sinab ko‘rish” imkonini beradi. Sun’iy intellekt vositalari suhbatdosh-simulyator sifatida qo‘llanilib, ular bergan madaniy ma’lumotlar autentik manbalar bilan albatta solishtiriladi.

Modelning samarali ishlashi quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga bog‘liq: autentik lingvomadaniy kontentni raqamli ta’lim resurslari bilan integratsiyalash; madaniyatlararo dialogik ta’limni tashkil etish, bunda talaba virtual almashinuvda o‘zbek madaniyatini ispan tilida taqdim etuvchi “madaniyat vakili” sifatida ishtirok etadi; individual va hamkorlikdagi raqamli faoliyatni uyg‘unlashtirish; har bir siklni refleksiv mahsulot bilan yakunlash orqali refleksiv-kognitiv faollikni rag‘batlantirish; o‘qituvchining texnologik, pedagogik va mazmuniy bilimlari integratsiyasiga (TPACK)[14] tayangan raqamli-madaniyatlararo fasilitatorlik faoliyati.

Talabalarning madaniyatlararo kognitiv dunyoqarashini baholash uchun 2-jadvalda keltirilgan diagnostik tizim ishlab chiqildi.

[12] Fiedler F.E., Mitchell T., Triandis H.C. The culture assimilator: An approach to cross-cultural training // Journal of Applied Psychology. – 1971. – Vol. 55, No. 2. – P. 95-102.
[13] Real Academia Española. Banco de datos (CORPES XXI) [en línea]. Corpus del Español del Siglo XXI (CORPES). – URL: https://www.rae.es/banco-de-datos/corpes-xxi
[14] Mishra P., Koehler M.J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A framework for teacher knowledge // Teachers College Record. – 2006. – Vol. 108, No. 6. – P. 1017-1054.

2-jadval

Madaniyatlararo kognitiv dunyoqarashni baholash mezonlari, ko‘rsatkichlari va vositalari

Mezon	Ko‘rsatkichlar	Diagnostika vositalari
Kognitiv-madaniy bilimlarning mazmuniyligi	Ispan tilida so‘zlashuvchi xalqlar tarixi, qadriyatlari, me’yorlari haqidagi bilimlar; konsept mazmunini ochib bera olish	Lingvomadaniy test, konsept tahlili topshirig‘i
Madaniyatlararo tafakkurning qiyosiyligi	O‘xshashlik va farqlarni asoslash; stereotiplarni aniqlash va tahlil qilish	Qiyosiy esse rubrikasi, “madaniy assimilyator” keyslari
Aksiologik munosabatning barqarorligi	Ochiqlik, hurmat va bag‘rikenglik; milliy o‘zlikni anglash	Madaniyatlararo sezgirlik shkalasi, so‘rovnoma
Kommunikativ faoliyatning samaradorligi	Kontekstga mos strategiyalar; onlayn muloqot va mediatsiya	Virtual almashinuvni kuzatish, CEFR deskriptorlari asosidagi rubrika
Refleksivlik darajasi	O‘z qarashlaridagi o‘zgarishlarni anglash va asoslash	Refleksiv kundalik, e-portfolio kontent-tahlili

Aksiologik mezonni baholashda G.-M.Chen va W.J.Starosta ishlab chiqqan madaniyatlararo sezgirlik shkalasidan[15], kommunikativ mezonni baholashda CEFR qo‘shimcha jildidagi onlayn muloqot va mediatsiya deskriptorlaridan[16] foydalaniladi. Natijalar uch daraja orqali talqin qilinadi: *fragmentar* (past) daraja – madaniy bilimlar tarqoq, baholash etnosentrik; *qiyosiy* (o‘rta) daraja – talaba madaniyatlarni qiyoslaydi, biroq farqlarni asosan tashqi belgilar bilan izohlaydi; *integrativ* (yuqori) daraja – talaba madaniy hodisalarni ularning ichki mantiqidan kelib chiqib talqin qiladi, etnorelativ pozitsiyada turadi va madaniyatlar o‘rtasida vositachilik qila oladi.

Taklif etilgan model mavjud tajribadan uch jihati bilan farqlanadi: birinchidan, raqamli vositalar alohida emas, balki kognitiv sikl bosqichlariga biriktirilgan holda qo‘llaniladi; ikkinchidan, qiyoslash ona madaniyatiga tayangan holda, ispan va o‘zbek madaniyatlari kesimida olib boriladi; uchinchidan, sun’iy intellekt vositalari mustaqil bilim manbai emas, balki autentik manbalar bilan tekshiriladigan suhbatdosh-simulyator vazifasini bajaradi. Modelning samaradorligini pedagogik tajriba-sinov asosida tekshirish tadqiqotning navbatdagi bosqichini tashkil etadi.

Xulosa

Ispan tili ta’limida talabalarning madaniyatlararo kognitiv dunyoqarashini shakllantirish raqamli vositalarni tizimsiz qo‘llash orqali emas, balki ularni maqsadli, mazmuniy, jarayonli, texnologik va natijaviy bloklardan iborat yaxlit model doirasida izlash, tahlil, qiyoslash, talqin va refleksiv baholash bosqichlariga biriktirish orqali samarali amalga oshiriladi. Modelning natijadorligi autentik kontent, dialogik ta’lim, individual va hamkorlikdagi faoliyat uyg‘unligi, refleksiya hamda o‘qituvchining raqamli-madaniyatlararo fasilitatorligidan iborat shart-sharoitlarga bog‘liq. Ishlab

[15] Chen G.-M., Starosta W.J. The development and validation of the Intercultural Sensitivity Scale // Human Communication. – 2000. – Vol. 3. – P. 1-15.

[16] Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Companion Volume. – Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020. – P. 84-87, 90-122.

chiqilgan diagnostik tizim talabalar dunyoqarashidagi o‘zgarishlar dinamikasini kuzatish va ta’lim jarayoniga o‘z vaqtida tuzatishlar kiritish imkonini beradi. Model materiallaridan amaliy ispan tili, mamlakatshunoslik va lingvokulturologiya fanlari mashg‘ulotlarida foydalanish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. – URL: https://lex.uz/docs/5426736
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “«Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. – URL: https://lex.uz/docs/5030957
3. Xalillayev A.K. Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarning samarali qo‘llanilishi: metodik yondashuvlar // Ispan tilining O‘zbekistonda rivojlanishi: tarixiy kontekst, yangi imkoniyatlar va zamonaviy tendensiyalar: xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2025. – B. 298-301.
4. Chen G.-M., Starosta W.J. The development and validation of the Intercultural Sensitivity Scale // Human Communication. – 2000. – Vol. 3. – P. 1-15.
5. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Companion Volume. – Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020. – 278 p.
6. Fiedler F.E., Mitchell T., Triandis H.C. The culture assimilator: An approach to cross-cultural training // Journal of Applied Psychology. – 1971. – Vol. 55, No. 2. – P. 95-102.
7. Giralt M., Villegas-Paredes G., Beaumont Aparicio G. Developing intercultural and digital competence through virtual exchanges in Spanish language learning and teaching // Journal of Spanish Language Teaching. – 2026. – Vol. 13, No. 1. – P. 80-99.
8. Godwin-Jones R. Telecollaboration as an approach to developing intercultural communication competence // Language Learning & Technology. – 2019. – Vol. 23, No. 3. – P. 8-28.
9. Instituto Cervantes. Plan curricular del Instituto Cervantes. Niveles de referencia para el español. – Madrid: Biblioteca Nueva, 2006.
10. Kasneci E., Sessler K., Küchemann S. et al. ChatGPT for good? On opportunities and challenges of large language models for education // Learning and Individual Differences. – 2023. – Vol. 103. – Art. 102274.
11. Mishra P., Koehler M.J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A framework for teacher knowledge // Teachers College Record. – 2006. – Vol. 108, No. 6. – P. 1017-1054.
12. O’Dowd R. From telecollaboration to virtual exchange: state-of-the-art and the role of UNICollaboration in moving forward // Journal of Virtual Exchange. – 2018. – Vol. 1. – P. 1-23.
13. Real Academia Española. Banco de datos (CORPES XXI) [en línea]. Corpus del Español del Siglo XXI (CORPES). – URL: https://www.rae.es/banco-de-datos/corpes-xxi
14. Sevilla Pavón A., Haba Osca J. «Te das cuenta de que el mundo puede ser tan distinto y similar al mismo tiempo»: telecolaboración y desarrollo de la competencia intercultural en la educación superior // Didáctica. Lengua y Literatura. – 2016. – Vol. 28. – P. 263-284.
15. UNESCO. Guidance for generative AI in education and research. – Paris: UNESCO, 2023. – 48 p.
16. Villegas-Paredes G., Canto Gutiérrez S., Rodríguez Moranta I. Telecolaboración y competencia comunicativa intercultural en la enseñanza-aprendizaje de ELE: un proyecto en educación superior // Porta Linguarum. – 2022. – Monográfico IV. – P. 97-118.